

Paxtachilikda energo va resurstejamkor qurilma

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari "BMKB-Agromash" AJ mutaxasislari bilan hamkorlikda universal ramaga ega bo'lgan keng qamrovli paxtachilik kultivator-o'g'itlagichini ishlab chiqishdi.



Yon ramalari ixcham yig'iladigan, qator oralari (60,76, 90sm) o'zgaruvchan kultivator-o'g'itlagich 150-200 ot kuchiga ega bo'lgan traktorlarning FIK (foydali ish koeffitsenti) dan to'la foydalanishni ta'minlaydi.

Mazkur mashinotraktor agregati ish hajmini saqlab qolgan holda ularning umumiy sonini hamda qatorlar orasidan o'tishlar sonini 50% gacha qisqartiradi. Energo va resurstejamkor bo'lgan ushbu ishlanma O'zbekiston sharoitidagi kengligi 4 metr bo'lgan umumiy va dala yo'llarida ham bimalol harakatlana oladi.



Yuqori ot kuchiga ega bo'lgan zamonaviy traktorlar bilan agregatlanadigan ushbu ishlanmani barcha klaster va fermer xo'jaliklarida ishlatib yuqori samaradorlikka erishishi mumkun.

Ramaga mahkamlangan yon sektsiyalarni ishchi holatga yoki ishchi holatdan transport holatiga o'tkazish gidrosilindrlar yordamida oson amalga oshiriladi. Miqdori 50 kgdan 300 kggacha bo'lgan turli markadagi mineral o'g'itlarni bir gektar yerga me'yor bo'yicha bir xilda taqsimlaydi. Ishchi sektsiyalar orasidagi masofani o'zgartirishni mexanizatorning bitta o'zi bimalol amalga oshirishi mumkun.